




## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-noyabr)

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, fizik hajm indeksi, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat sanoat korxonalari tomonidan 8500,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 104,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,66 % ni tashkil etdi.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida - 20,1 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 3,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 13,1 % ga o'sishi kuzatilib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 7,9 % ga kamayishi kuzatildi.

\***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** – *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,3 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,03 % ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8131,4 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,66 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 46,7 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 20,9 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 16,0 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 46,7 %.**




**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 20,9 %.**



**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -16,0%.**




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 307,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,61 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 120,1 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 59,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,70 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig‘ish, qayta ishslash va taqsimlash – 65,9 %, chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizasiya qilish – 33,4 % tashkil etdi.





**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)**


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2019- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
<b>Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:</b>	205,8	500,9	-295,1
<b>Issiqlik energiyasi – ming Gkal:</b>	90,1	89,4	0,7
<b>Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – dona:</b>	48284,0	47940,0	344
<b>Maxsus yengil avtomobillar – dona:</b>	8112,0	6670,0	1442
<b>Aroq – ming litr:</b>	384,6	1158,2	-773,6
<b>Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:</b>	12,7	19,7	-7
<b>Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:</b>	771,6	1170,6	-399
<b>Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:</b>	85221,1	74619,1	10602
<b>Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:</b>	11393,2	16009,7	-4616,5
<b>Xo‘jalik sovuni – tonna:</b>	3655,0	4970,0	-1315
<b>Paxta tolasi – tonna:</b>	51376,4	48587,6	2788,8
<b>Paxta chigit – tonna:</b>	82836,0	75724,4	7111,6

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 295,1 mln. kVts ga, aroq 773,6 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari 7 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 399,0 ming litrga, tozalangan o‘simlik yog‘i 4616,5 tonnaga, xo‘jalik sovuni 1315 tonnaga kamaygan.


Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobiliarsiz), maxsus yengil avtomobillar, yumshoq bug‘doy va spelta uni, paxta tolasi, paxta chigit sezilarli darajada oshgan.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

**2020- yil yanvar-noyabr**



**2019- yil yanvar-noyabr**



█ Yuqori texnologiyali  
█ O'rta-yuqori texnologiyali

█ Quyi texnologiyali  
█ O'rta-quyi texnologiyali

2019- yil yanvar-noyabr oylarida o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,6 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020- yil yanvar-noyabr oylarida bu ko‘rsatkich 6,6 % ga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 38,1 % dan 41,7 % ga, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,02 % dan 0,02 % ga oshgan bo‘lsa o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 52,0 % dan 47,4 % ga kamayish kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 1,7 mlrd. so‘mlik (2019- yil yanvar-noyabr oylarida 1,2 mlrd. so‘m), o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 4027,8 mlrd. so‘mlik (3886,7 mlrd. so‘m), o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqda 559,1 mlrd. so‘mlik (420,4 mlrd. so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 3542,8 mlrd. so‘mlik (2849,9 mlrd. so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



## Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari


Shahar va tumanlar nomi	2020- yil yanvar-noyabr mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>8500,2</b>	<b>104,3</b>
Urganch shahri	1624,3	97,6
Xiva shahri	139,6	104,5
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bogʻot tumani	299,8	107,5
Gurlan tumani	346,1	100,8
Qoʻshkoʻpir tumani	192,3	104,6
Urganch tumani	325,3	108,0
Hazorasp tumani	235,8	126,6
Tuproqqaʼa tumani*	3955,8	106,2
Xonqa tumani	447,8	103,9
Xiva tumani	207,0	122,9
Shovot tumani	267,7	108,2
Yangiariq tumani	215,2	109,2
Yangibozor tumani	243,5	141,4

Yuqoridagi jadvalning tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, Tuproqqaʼa va Yangiariq tumanlari, Xiva shahri, Gurlan, Qoʼshkoʼpir, Shovot, Yangibozor, Xiva, Hazorasp, Xonqa, Bogʻot va Urganch tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.

**\*Tuproqqaʼa tumani – 2020 yil aprel oyida Hazorasp tumani hududidan alohida ajralib chiqqan tuman hisoblanadi.**

## Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2019- yil yanvar-noyabriga nisbatan, Yangibozor tumanida 141,4 %, Hazorasp tumanida 126,6 %, Xiva tumanida 122,9 %, Yangiariq tumanida 109,2 %, Shovot tumanida 108,2 %, Urganch tumanida 108,0 %, Bog'ot tumanida 107,5%, Tuproqqa'l'a tumanida 106,2 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



**SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI**  
2019- YIL YANVAR-NOYABR OYLARIغا NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 46,5 %), Urganch shahri ( 19,1 %), Xonqa (5,3 %), Gurlan ( 4,1 % ) hamda Urganch (3,8 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Xiva tumanı (2,4 %), Qo‘shko‘pir tumani ( 2,3 %) va Xiva shahri (1,6 %) ga to‘g‘ri kelmoqda.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish (mlrd. so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020- yil yanvar-noyabr	2019- yil yanvar-noyabr
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>8500,2</b>	<b>7475,9</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>2,3</b>	<b>2,2</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	2,3	2,2
<b>Qayta ishslash faoliyati</b>	<b>8131,4</b>	<b>7158,3</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1297,7	1115,0
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	288,5	254,4
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1703,5	1261,6
Kiyim ishlab chiqarish	62,6	19,0
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	4,8	5,2
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materillallari, ishlab chiqarish	9,8	8,4
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	43,6	17,7
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,2	1,5


<b>Iqtisodiy faoliyat turlari:</b>	<b>2020- yil yanvar-noyabr</b>	<b>2019- yil yanvar-noyabr</b>
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,8	0,6
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	42,4	38,2
Asosiy farmasevtika	1,4	0,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	58,9	45,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	287,9	194,9
Metallurgiya sanoati	35,8	29,8
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	163,4	132,0
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,3	0,4
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	25,2	25,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	160,8	478,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	3794,9	3343,6
Mebel ishlab chiqarish	43,5	38,4
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	87,6	128,7
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	12,2	18,1
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>307,2</b>	<b>268,9</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>59,3</b>	<b>46,5</b>




## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 5610,5 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,0 % ni tashkil etdi.

2020 yil yanvar-noyabr



2019 yil yanvar-noyabr



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 1401,3 mlrd. so'mni, alkogol ichimliklar 16,6 mlrd. so'mni va 4192,6 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 101,7 %, 47,2 % va 102,6 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 66,0 % ni (2019 yil yanvar-noyabr oylarida 73,6 %) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 361,7 mlrd. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 3212,7 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 618,2 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o’sish sur’ati  
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so‘m</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>5610,5</b>	<b>100</b>	<b>102,0</b>
Urganch shahri	804,9	14,3	105,9
Xiva shahri	104,3	1,9	108,5
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	201,1	3,6	111,4
Gurlan tumani	180,2	3,2	108,1
Qo‘shko‘pir tumani	71,3	1,3	88,0
Urganch tumani	242,2	4,3	108,1
Hazorasp tumani	83,8	1,5	79,4
Tuproqqa'l'a tumani	3282,4	58,5	101,0
Xonqa tumani	244,9	4,4	114,0
Xiva tumani	97,6	1,7	80,1
Shovot tumani	126,8	2,3	99,2
Yangiariq tumani	93,0	1,6	98,0
Yangibozor tumani	78,0	1,4	99,6

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to‘g‘ri kelib, 58,5 % ni, shuningdek, Urganch shahrida 14,3 % ni, Xonqa tumanida 4,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Xiva shahrida (108,5 %), Gurlan tumanida (108,1 %), Urganch tumanida (108,1 %), Bog'ot tumanida (111,4 %), Xonqa tumanida (114,0 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-noyabroylariga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1401,3</b>	<b>100,0</b>	<b>101,7</b>
Urganch shahri	480,0	34,2	98,6
Xiva shahri	53,0	3,8	106,9
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	108,3	7,7	125,4
Gurlan tumani	91,4	6,5	100,5
Qo'shko'pir tumani	40,0	2,8	78,2
Urganch tumani	150,1	10,7	125,3
Hazorasp tumani	50,0	3,6	76,3
Tuproqqa'l'a tumani	20,6	1,5	70,4
Xonqa tumani	167,5	12,0	116,7
Xiva tumani	51,2	3,7	80,1
Shovot tumani	86,0	6,1	98,1
Yangiariq tumani	50,6	3,6	101,7
Yangibozor tumani	52,6	3,8	98,8

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib - 34,2 % , shuningdek, Xonqa tumanida 12,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bog‘ot tumanida (125,4 %), Urganch tumanida (125,3 %) kuzatildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati  
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-noyabro oylariga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>4192,6</b>	<b>100,0</b>	<b>102,6</b>
Urganch shahri	308,3	7,4	129,7
Xiva shahri	51,3	1,2	110,2
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	92,8	2,2	98,6
Gurlan tumani	88,8	2,1	117,2
Qo‘siko‘pir tumani	31,3	0,7	104,8
Urganch tumani	92,1	2,2	88,3
Hazorasp tumani	33,8	0,8	84,8
Tuproqqa‘l tumani	3261,8	77,8	101,3
Xonqa tumani	77,4	1,9	108,5
Xiva tumani	46,4	1,1	79,9
Shovot tumani	40,8	1,0	101,6
Yangiariq tumani	42,4	1,0	94,0
Yangibozor tumani	25,4	0,6	101,6

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri keldi (77,8 %), shuningdek, Urganch shahrida 7,4 % ni, Bog'ot tumanida 2,2 % ni, Urganch tumanida 2,2 % ni, Gurlan tumanida 2,1 % ni va Xonqa tumanida 1,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Urganch shahri (129,7 %), Gurlan tumani (117,2 %), Xiva shahri (110,2 %) va Xonqa tumani (108,5 %) tashkil qildi.




### **Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da)**

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan Xonqa tumanida (114,0 %), Bog'ot tumanida (111,4 %) va Xiva shahrida (108,5 %), Gurlan tumanida (108,1 %), Urganch tumanida (108,1 %), Urganch shahrida (105,9 %), Tuproqqa'l'a tumanida (101,0 %) sezilarli darajada o'sgan.

Qolgan barcha tumanlarda o'sish sur'ati 100 % dan kamayganini ko'rish mumkin.

Masalan, Yangibozor tumanida 99,6 %, Shovot tumanida 99,2 %, Yangiariq tumanida 98,0 %, Qo'shko'pir tumanida 88,0 %, Xiva tumaniga 80,1 % va Hazorasp tumanida 79,4 % to'g'ri keladi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020- yil yanvar- noyabr oylarida, ming so‘m)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da</b>	<b>Iste’mol mahsulotlari</b>	<b>2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>4532,7</b>	<b>102,7</b>	<b>2991,8</b>	<b>100,4</b>
Urganch sh.	11263,7	96,4	5581,6	104,6
Xiva sh.	1508,5	103,0	1126,7	106,9
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot	1819,9	105,6	1220,7	109,5
Gurlan	2334,4	99,4	1215,5	106,6
Qo‘shko‘pir	1116,2	103,0	413,7	86,6
Urganch	1635,8	106,0	1218,1	106,1
Hazorasp	1217,5	160,2	432,8	100,6
Tuproqqał'a	71596,6	0,0	59408,3	0,0
Xonqa	2402,0	102,3	1313,7	112,3
Xiva	1421,0	120,9	669,9	78,7
Shovot	1574,2	106,5	745,7	97,6
Yangiariq	1854,5	107,6	801,1	96,5
Yangibozor	2788,2	139,3	893,6	98,2


Yuqoridaǵi tahliliy jadvalga asosan, joriy yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 4532,7 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 102,7 % ga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidgi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2019- yil

yanvar-noyabr oylarida Xiva shahrida 1247,8 ming so'mdan 1508,5 ming so'mga, Bog'ot tumanida 1427,6 ming so'mdan 1819,9 ming so'mga, Gurlan tumanida 2159,3 ming so'mdan 2334,4 ming so'mga, Qo'shko'pir tumanida 973,8 ming so'mdan 1116,2 ming so'mga, Urganch tumanida 1197,6 ming so'mdan 1635,8 ming so'mga, Xazorasp tumanida 886,7 ming so'mdan 1217,5 ming so'mga, Xonqa tumanida 1986,3 ming so'mdan 2402,0 ming so'mga, Xiva tumanida 816,9 ming so'mdan 1421,0 ming so'mga, Shovot tumanida 1331,2 ming so'mdan 1574,2 ming so'mga, Yangiariq tumanida 1656,9 ming so'mdan 1854,5 ming so'mga va Yangibozor tumanida 1286,0 ming so'mdan 2788,2 ming so'mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqal'a tumanida (71596,6 ming so'm), Urganch shahrida (11263,7 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4532,7 ming so'm) yuqoriligi kuzatilgan.

Aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo'yicha 2991,8 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2019- yil yanvar-noyabr oylarida Urganch shahrida 5335,7 ming so'mdan 2020 yil yanvar-noyabr oylarida 5581,6 ming so'mga, Bog'ot tumanida 1114,8 ming so'mdan 1220,7 ming so'mga va Xonqa tumanida 1170,1 ming so'mdan 1313,7 ming so'mga o'sgani kuzatildi.

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Urganch tumanı (76,1 %), Bog'ot tumani (75,5 %), Gurlan tumani (72,7 %), Qo'shko'pir tumani (67,8 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

Viloyatda yanvar-noyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2445,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 28,8 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili Tuproqqa‘l tumani (3,5 %), Yangibozor tumani (30,5 %), Shovot tumani (35,2 %), Urganch shahrida (35,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

### Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 977,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiyligi ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,5 % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Sanoat statistikasi bo‘limi  
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99